
9-may "Xotira va qadrlash" kuni munosabati bilan O'zbekiston yoshlar Ittifoqi Quva tuman Kengashi tomonidan "Xotira marafoni" tashkil etildi.

Sog'lom turmush tarzini targ'ib etish maqsadida tashkil etilgan ushbu marafonda tuman sektor rahbarlari, davlat va jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuman kengashi faollaridan iborat mingdan ortiq yoshlar, keng jamoatchilik hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

5 kilometr masofani tashkil etgan marafonda ishtirokchilar yosh kategoriyasiga qarab 2 ga bo'lindi. Ya'ni birinchi bosqichda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar, 2 bosqich 18 dan 30 yoshgacha va 3 bosqichda ayollar o'zaro bellashishdi.

Marafon g'olib va sovrindorlariga tuman Kengashi tomonidan Velosiped, Artel pechi va esdalik sovg'alari topshirildi.

2019-05-03 11:09:29